

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OILA HAMKORLIGIDA BOLALARDA MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH

**Matrizayeva Bonu Saburjon qizi**

Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti talabalasi

[matrizayeva6929@gmail.com](mailto:matrizayeva6929@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirishda Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligini tashkil qilish, bolalarga oilada ta'lim berish usullari, bilimlarni mustahkamlovchi o'yinlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Bola, oila, maktabgacha ta'lim yoshi, tarbiya, matematik tasavvurlar, didaktik o'yinlar.

**Developing children's mathematical skills in collaboration with preschool and family.**

### ANNOTATION

This article describes the organization of cooperation between preschool education and family in the formation of mathematical imagination in children, methods of teaching children in the family, knowledge-enhancing games.

**Keywords:** Child, family, preschool, education, math, didactic games.

**Развитие математических способностей детей в сотрудничестве с дошкольным учреждением и семьей**

### АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны организация дошкольного воспитания и семейного сотрудничества в формировании математического воображения у детей, методы обучения детей в семье, познавательные игры.

**Ключевые слова:** ребенок, семья, дошкольное учреждение, обучение, математика, дидактические игры.

**Kirish.** Bolalami maktabga tayyorlashda Maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan birgalikda oila ham alohida ahamiyat kasb etadigan maskandir. . Bola kunning asosiy qismini maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tkazsa ham, inson kamoloti uchun eng muhim bo'lgan omillardan biri tarbiyaning tamal toshi oilada qo'yiladi. Shu sababli ham maktabgacha pedagogikaning asosiy maqsadi bo'lgan bolalami maktab ta'limiga har tomonlama tayyorlashda maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan oila hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni oilada tarbiyalashni, ota-onalar bilan hamkorlikni yanada takomillashtirish yo'llarini izlab topish, oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini mustahkamlash maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari, pedagoglar, bu sohada ilmiy ish olib boruvchi tadqiqotchilar va uslubchilarning muhim vazifasidir. Bolalarni tarbiyasi davlat ahamiyatidagi vazifadir. Uning to'g'ri hal qilinishi tarbiya ishining qo'yilishiga kompleks yondashishga tarbiyaviy

muassasalarning, oila va jamiyatchilikning to‘liq o‘zaro ta’siri va harakatlarning birligiga bog‘liq.<sup>1</sup> Matematik bilimlar bolalarga ma’lum tizim va izchilikda berilishi, bunda yangi bilim kamroq miqdorda, ya’ni bolalar o‘zlashtirib oladigan darajada bo‘lishi kerak.

**Adabiyotlar tahlili.** Bolalarga matematikadan ta’lim berish va maktabgacha ta’limdagi o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishning maqsadlaridan biri — bu bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirishdir. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni va “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi talablari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni istiqbol mafkurasi asosida sog‘lom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta’limiga tayyorlashdan iboratdir.

Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy bola tarbiyasida xatolikda yo‘l qo‘yish mumkin emasligini uqtiradi. Haqiqatdan ham bolani tarbiyalashda shunday xatoliklar uchraydiki, ular faqat oilaning hayotida emas balki jamiyat hayotida ham aks ettiradi. Bolada matematik tasavvurlarni shakllantirish masalasiga Y.M. Kolyagin, Y.I. Kulyutkin, L.M.Fridman, psixologlar, pedagoglar va uslubchilar K. Dunker, J. Piaje, J. Poyalarning mashhur tadqiqotlari, Najmiddinova X.Yo, A.D.Qurbonovna, M.Jumayevlarning asarlari katta ahamiyatga ega. A.N. Leontev va S.L. Rubinshteynning o‘qitish amaliyotidagi xulosalariga qaraganda, matematik tasavvurlarni shakllantirishda faoliyat shakllarining ishlanmasi va ishlatilishi hamda ta’limdagi faoliyat tamoyillarining bir-biriga ketma-ket o‘tkazilishi eng foydali va natijali yo‘nalishdir.

**Natijalar.** Oilada tarbiyani har tomonlama, jumladan mafkuraviy, axloqiy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyasini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi. Masalan: mafkuraviy tarbiyani bolaga o‘tmishimizda vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi va farovonligi yo‘lida kurashgan xalq qahramonlari haqida gapirib berish, davlatimizning ramziy belgilari bilan tanishtirish, mustaqillik, vatan haqidagi she’r va qo‘shiqlarni yod oldirish orqali singdirish mumkin. Shuningdek, farzandlarimizda Vatan himoyasiga har doim tayyorlik tuyg‘usini shakllantirishdan iborat.

Matematik tasavvurlarni shakllantirishda tarbiyachi ota-onalar bilan hamkorlikda faoliyat olib borishi, bunda har bir ota-ona farzandi nimani o‘rganganini bilishi lozim. Shu bilimlarni kundalik hayotda o‘yinlar orqali yoki turli topshiriqlar orqali mustahkamlab borsa albatta natija juda yaxshi bo‘ladi. Ko‘pchilik ota-onalar bolalarni eng oldin o‘ngacha, yigirmagacha va hatto yuzgacha sanashga o‘rgatadilar. Ularni ranjitishga to‘g‘ri keladi. Juda ko‘p hollarda bolalarning ota-onalari g‘ururlanadigan bunday “bilim”lari foydasiz bo‘ladi, chunki bola bunda sonning nomini va qatordagi tartibini mexanik ravishda yodlab oladi, mutlaq sanoq deb ataluvchi sanash bo‘yicha mashq qilib oladi. Odatda, unda bolalarda sonlar haqida yetarli ravishda tasavvur mavjud bo‘lmaydi.

Bolani sanashga qanday o‘rgatish kerak? Sanoq bola uchun ma’lum tartibda yodlab olingan so‘zlar majmuasi bo‘lmay, balki sanash sonning mazmunini bilganlikka asoslanadigan bo‘lishiga qanday erishish mumkinligida. Bu boradagi eng sodda va samarali usul buyumlarni qayta sanashdir. Buning uchun maxsus mashg‘ulotlarni tashkil qilishning hojati yo‘q. Bolaning kattalar bilan muloqoti vaqtida, bolalar o‘yinlari

---

<sup>1</sup> A.D. Qurbonovna –“Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi” – Namangan-  
T:2020-140b

jarayonida sanoqqa oid mashqlar o`tkazish uchun imkoniyatlar ko`p. “Uy oldida nechta daraxt o`smoqda? Mashinalar turadigan joydagi qizil mashinalar nechta? Qutidagi qalamlar nechta? Beshta tarelka, beshta qoshiq keltir. Nechta odam choy ichsa, shuncha piyola keltir (qo`y)”.<sup>2</sup> Ota-onalarga o`z bolalari bilan shug`ullanganlarida ko`proq o`yin metodlaridan foydalanishni maslahat beramiz. Bolalar uchun “Nima o`zgardi?” o`yini qiziqarli. Bu o`yin orqali buyumlarning ikki guruhini taqqoslash oson, qiziqarli tarzda o`zlashtirishni ta`minlaydi. Masalan, pastki va ustki qatorda ikki xil rangli oltitadan uchburchak turibdi. Bola qizil rangli uchburchaklar ham, sariq rangdagi uchburchaklar ham oltitadan ekanini ta`kidlaydi. Shundan keyin u ko`zlarini yumadi, bolalardan biri shu vaqt ichida bitta qizil uchburchakni olib qo`yadi. Bola ko`zining ochib nima o`zgarishini aniqlashi va bu haqida gapirib berishi kerak. O`yinni davom ettirib, goh yuqori qatordan, goh pastki qatordan bittadan buyumni olish mumkin, goh yuqori poloskaga, goh pastki poloskaga bittadan buyumni qo`yish mumkin. Ba`zan esa hamma buyumlarni qatorlarda o`zgarishsiz qoldirish ham mumkin. Bolalar o`zgarishlarni payqab, bunda ham qanday buyumlar ko`p, qanday buyumlar kam yoki buyumlar teng ekanini aniqlashlari kerak. Bolalarning sevimli o`yinlari bo`lmish koptok o`ynashdan matematik bilimlarni mustahkamlashda foydalanish mumkin. Sayr paytida siz bolaga koptokni irg`itasiz va sonni aytasiz. Bola to`pni orqaga qaytarib, kelishilganiga binoan, bundan bitta ortiq yoki bitta kam sonni aytishi kerak.<sup>3</sup>

Shunday qilib, bolalar sonlarning natural ketma-ketligi qonunini o`zlashtirishadi.

Turmushda biz nimanidir bo`lish zaruratiga juda ko`p duch kelamiz. Bolalarni shunga o`rgatish kerak. Bolaga oldin buyumlarni teng ikkita, to`rtta, sakkizta qismga bo`lishni ko`rsatishni tavsiya qilamiz. Ota-onalarning o`zlari bolani buyumni bo`lish zaruratiga duchor qiladigan vaziyatni topishlari mumkin. Masalan, bolaning oldiga o`rtog`i mehmon bo`lib keldi, uni olma bilan siylash kerak, ammo olma bitta. Nima qilmoq kerak? Bolalar nimalar deyishlarini tinglash qiziq. Ba`zida ular olmani orqaga berkitib turishni maslahat berishadi. Olma qaysi qo`lda ekanini kim topsa, olma ana shunga tegadi yoki tezgina borib magazindan yana bitta olma sotib olishni taklif qilishadi. Siz bu takliflarni bolalar xafa bo`lmaydigan qilib yo`qqa chiqarib, boshqa yechim topishni so`raysiz. Nihoyat, bolalar olmani bo`lish kerak, degan yechimni topadilar. Ko`pincha ular “Bo`lish kerak” deyishadi-yu, ammo teng qismlarga bo`lish kerak, deb qo`shimcha qilish kerak. Shundan keyin siz olmani aniq qilib bo`lasiz, ikkala qismni taqqoslaysiz, ular teng, bir xil ekanini aytasiz: “Ikkita teng bo`lakcha, ikkita teng qism”. Bolalarga ta`lim berishda shunga o`xshash ko`plab vaziyatlardan foydalanish samarali bo`ladi.

**Xulosa.** Matematika bolalar shaxsiyatining turli tomonlarini qamrab oladigan kam sonli fanlardan biridir. Boshlang`ich matematik tushunchalarni shakllantirish va o`qitish jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar barcha kognitiv jarayonlarni faol rivojlantiradilar: nutq, fikrlash, xotira, idrok, vakillik. Bu, agar sinflarni tashkil qilishda har bir bolaning psixofizik rivojlanishiga qarab, bolada kognitiv jarayonlarning rivojlanish chastotasi va ketma-ketligi hisobga olinsa samarali bo`ladi. Xulosa qilib aytganda, bolalarni matematikaga o`rgatishda Maktabgacha ta`im tashkiloti va oila hamkorligida faoliyat olib borish

<sup>2</sup>Н.У.Бикбаев,Х.Н.Косимова,З.Ибрагимова. Мактабгача ёшдаги болаларда математик тасаввурлар ни шакллантириш. «Укитувчи»Т., 1995 й-30б

<sup>3</sup>Н.У.Бикбаев,Х.Н.Косимова,З.Ибрагимова. Мактабгача ёшдаги болаларда математик тасаввурлар ни шакллантириш. «Укитувчи»Т., 1995 й-33б

jarayonida bola har tomonlama kamol topadi. Hozirgi kunda har bir pedagog ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashi ularning bilimi, tarbiyasini biralikda nazorat qilib borishi zarur hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini asosan bolaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirish lozim. Shundagina bolalarga ta'lim berishda kutilgan natijalarga erishishimiz mumkin. Har bir bola maktabgacha yosh davridan matematikani yaxshi o'zlashtira olsa aqliy rivojlanishi yaxshi bo'lib, kelgusida o'zlashtirishda yaxshi natijalarni ko'rsatadi. Chunki maktabgacha ta'lim yoshi hayotning poydevori hisoblanadi. Bunga har bir ota-ona, pedagog ma'suliyat bilan yondashishi, kelajakimiz poydevorlarini tarbiyalashda o'z hissalarini qo'shmog'i lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A.D. Qurbonovna – “Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi” – Namangan-T:2020-140b
2. Н.У. Бикбаев, Х.Н. Косимова, З. Ибрагимова. Мактабгача ёшдаги болаларда математик тасаввурларни шакллантириш. «Укитувчи»Т., 1995.